



## TEMURIYLAR DAVRI VA ALISHER NAVOIY FENOMENI

**Muallif:** Jabbor Eshonqulov<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** filologiya fanlari doktori, professor<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20233305>

### ANNOTATSIYA

Alisher Navoiy o‘zidan ulkan bir meros qoldirgan, badiiy so‘z san‘atini eng yuksak cho‘qqilarga olib chiqqan buyuk san‘atkordir. Uning asarlarida biz insoniyat tamadduni erishgan barcha yutuqlarni, tarixiy shaxslarni, tarixiy voqelikni, inson ruhiyatning nozik qirralarini keng polotnolarda, yuksak badiiyat va zo‘r mahorat bilan tasvirlanganining guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun Alisher Navoiy o‘z davrininggina emas, balki jahoniy ko‘lam kasb etgan dunyo shoiri, jahon adabiyotining eng yetuk namoyondasidir.

Navoiyning har bir asari jasorat timsolidir. Uning she‘riyati ham, “Xamsa”si, ilmiy, tarixiy asarlari ham yuksak badiiy tafakkur namunasi, ijodkorlik namunasi. Navoiy asarlari uning merosini o‘rganish uchun emas, balki o‘sha davr adabiy muhiti, millat badiiy tafakkur tarixini o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy fenomini anglash uchun temuriylar davridagi san‘at, madaniyat, millat tafakkuridagi evrilishlarni chuqur tadqiq etish lozim bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** Temuriylar davri san‘at va madaniyati, til va tafakkur, badiiy so‘z san‘ati, poetik tafakkur, islom madaniyat, tasavvuf, Alisher Navoiy merosi.

Alisher Navoiy dahosini, ijodining mazmuni, mohiyati va ko‘lamini anglash uchun temuriylar davrida amalga oshirilgan ulkan ilohatlar ko‘lamini, iqtisod, siyosat, diplomatik aloqalar, madaniyat va san‘atda erishilgan yutuqlarni anglash lozim bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida bergan ma‘lumotlarga suyanadigan bo‘lsak, Temuriylar davrida ilm-fan gullab yashnagan, adabiyot va san‘at rivojlangan, musiqa, raqs, arxitektura va hunarmandchilik san‘ati yuksalgan. Boshqacha aytganda, Temuriylar davrining iqtisodiy, siyosiy yuksalish omili bevosita ilm-fan, madaniyat va san‘at bilan chambarchas bog‘liq.

Amir Temur shunchaki saltanat hududlarini kengaytirib qolmadi, u insoniyat tarixida yangi bir yuksalish davrini boshlab berdi. Shuning uchun Alisher Navoiyga baho berayotganda, u yetishib chiqqan muhit, temuriylar davri musiqa, raqs, hunarmandchilik va arxitektura san‘ati, ilmiy adabiy jarayonlarni birgalikda tadqiq etish lozim bo‘ladi.

Alisher Navoiy merosini esa, shubhasiz Temuriylar davri iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganish zarur bo‘ladi.

Alisher Navoiy merosiga qiziqish o‘z davridan to bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Navoiy zamondoshlarining bitiklari, keyinchalik yaratilgan ilmiy, tarixiy, adabiy asarlar shoirning hayoti va ijodini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiyning qo'lyozmalari uning hayotlik chog'idayoq kitobat qilingan, dastlab muxlislari, keyinchalik o'zi va o'z davrining mashhur kotiblari orqali ko'chirilgan. Bu qo'lyozmalar butun dunyo bo'yicha sochilib ketgan.

Fuod Ko'pruli, K.Erjilasun, O'.Sertqoya, V.Turk kabi turkiyalik olimlar Navoiy g'azallari shoir hayotlik chog'idayoq turk tiliga tarjima qilina boshlagani, Navoiyga ergashib turkiy tilda g'azal bitish an'anasi rivoj topganini, usmonli turk she'riyatida yangi bir davrni boshlab berganini ta'kidlaydilar. Ularning nazdida, Navoiy turkiy adabiyotning qutb yulduzidir.

Ikkinchi Renessans buyuk o'zgarishlar davri bo'lib tarixga muhrlandi. Ovrupo ma'rifatparvarlari o'z davrida e'tiborni tabiatdan olib, insonga qaratdi. Ijodan maqsad inson ekanini urg'ulashdi. Ovrupolik hamkasblaridan farqli ularoq Sharq mutafakkirlari esa voqyelikni ilohiyotga bog'lab, e'tiborni inson botiniga qaratdi. Inson qalbi, ruhoniyatini o'lgan olamning bir parchasi, kichik bir modeli ularoq talqin etishdi. Bu esa ijoddagi yangilanish jarayonining boshlanishi edi. Bu yangilanish janrlar, shakl, uslub, ohang, voqyelikka munosabat va ifoda tarzlarning tamoman yangilanishi, turkiy tilning yuksalishi bo'lib tarixga kirdi. Bunda, shubhasiz, Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir.

Rus sharqshunoslaridan biri V.Jirmunskiy Navoiy davrini Ovrupodagi uyg'onish davri, xususan, fransuz ma'rifatparvari Dyu Belli ijodi bilan qiyoslaydi. Dyu Belli ham she'rlar yozib, o'z tili maqomini ko'tarish uchun maxsus tadqiqotlar yaratgan. Biroq, shunday bo'lsada, V.Jirmunskiyning bu qiyoslari anchayin bahs talab, ayni paytda u "Fors tilining bilimdoni, shu tilda go'zal ash'orlar bitgan Navoiy o'z ona tilida yaratilgan buyuk she'riyatning asoschisiga aylandi" degan xulosaga keladi va Navoiy Sharq adabiy hodisasigina emas, jahoniy ko'lamda ekanini e'tirof etadi. N.Konrad esa "*Alisher Navoiy – jahon madaniyatining umumiy yutug'idir*" dyeya ta'rif beradi.

Jadid adabiyoti namoyondalari millatni birlashtirish, ma'rifatli etishda Alisher Navoiy kabi allomalarimiz asarlarining o'rni va ahamiyati yuksakligini urg'ulashdi.

Alisher Navoiy merosini o'rganishda Oybek, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Natan Mallaev, Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Yoqubjon Is'hoqov, Suyima G'anieva, Begali Qosimov, Ibrohim Haqqul kabi olimlarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli bo'ladi.

So'nggi yillarda yurtimizda adabiyotga, ilm fanga berilayotgan yuksak e'tibor tufayli navoyshunoslik ufqlari yanada kengayib bormoqda. Akademik Shuhrat Sirojiddinovning Navoyiga bag'ishlangan monografiyasi o'zbek, ozarbayjon, turk, ingliz, Olim Davlatovning tadqiqoti o'zbek, qirg'iz, turk tillarida chop etildi. Turkiyalik olim Vohid Turk Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan maxsus tadqiqot yaratdi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Boqijon To'xliev, Yusuf Tursunov, Sayfiddin Rafiddinov, Nurboy Jabborov, Maqsud Asadov, Bibirobiya Rajabova, Qodirjon Ergashev, Karomat Mo'llaxo'jaeva, Uzoq Jo'raqulov, Dilrabo Yusupova, Ilyos Ismoilov kabi o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari, o'ttiz jilddan iborat "*Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi*"; to'rt jilddan iborat "*Alisher Navoiy ensiklopediyasi*"ning yaratilishi Alisher Navoiy merosini o'rganishda yangi bir bosqich boshlanganidan darak beradi.

Alisher Navoiy bundan olti asr narida yashab o'tgan bo'lsa-da, bugun ham insoniyatni qiynayotgan muammolarga uning asarlaridan javob topamiz. Shoir merosi tengsiz ummon kabi o'ziga tortaveradi, uni o'qib, uqqan sayin bu buyuk merosining yangidan-yangi qirralarini kashf etishda davom etaveramiz.

Alisher Navoiy asarlari bu, birinchi navbatda, adabiy janrlar takomilidir. Ustoz adabiyotshunoslarimiz Alisher Navoiy she'riy merosi 16 xil janrda ekanligini urg'ulashadi. O'zigacha bo'lgan g'azal, ruboiy va boshqa she'riy janrlar Navoiyda o'zining butunlay takomiliga yetgan. Maqsud Shayxzoda Navoiyni *"G'azal mulkining sultoni"* deb bejizga atamagan.<sup>1</sup>

Alisher Navoiydek shaxsiyatning XV asrda paydo bo'lishi bu millatning o'z davri, tarix va butun insoniyat oldidagi eng yuksak jasorati edi. Alisher Navoiyga o'xshash shaxsiyatlar tarix sahnasida o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Alisher Navoiy fenomeni tarixiy jarayonda ko'plab tamaddunlarni boshidan o'tkazgan, insoniyat tarixini yuksaklarga ko'targan ajodlarimizga xos an'ana va qadriyatlarning, Amir Temur misolida turkiy xalqlarning dunyo madaniyatiga qo'shgan ulushi bilan belgilanadi.

Amir Temur saltanatining dovrug'i XIV asrdayoq uzoq Ovrupo o'lkalariga yetib borgandi, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari o'rnatilgandi. Muhim jihati, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar adabiyot, san'at va madaniyat sohasi bilan birgalikda olib borilganligidir. Temuriylar davrining arxitekturasi, musiqa, tasviriy san'at, badiiy hunarmandchilik va boshqa sohalardagi erishgan yutuqlari dovrug'i juda olisdagi o'lkalarga ham yetib borgandi.

Kastiliya qiroli Genrix III nomidan elchi bo'lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaliklarida Amir Temur davridagi Samarqand shahrini shunday tavsirlaydi:

*«Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa mamlakatlardan, shuningdek, benihoyat boy Samarqand saltanatining o'zidan keltirilgan mollar sotiladi. Shaharga keltirilgan mollarni bir safda tartib bilan joylashtirib sotadigan keng bunday joy yo'q edi. Podshoh ikki tarafida qator do'konlar joylashtirilgan savdo rastasidan iborat ko'cha o'tkazishni buyurdi. Mazkur ko'cha shaharning bir chekkasidan boshlanib, qoq o'rtasidan o'tib, ikkinchi chekkasidan chiqishi lozim edi».*<sup>2</sup>

Bu xorijlik sayyohning havas bilan bitgan etiroflari. Rui Gonsales de Klavixoga tegishli va boshqa ko'plab manbalardagi qaydlardan shuni anglash mumkinki, Amir Temur davrida Samarqand nafaqat Mavorounnahrda, balki dunyodagi eng yetakchi poytaxtlardan biriga aylangan.

Garchand Amir Temur *"Bizning kimligimizni bilmoqchi bo'lganlar, biz qurgan imoratlarga boqsin"* degan bo'lsa-da, yaratilgan davridan to bugungacha yuksak san'at, betakror arxitektura va ijod namunlari bo'lishi bilan bir qatorda, millat tafakkuri, madaniyati va san'atining ham namunasi, boshqacha aytganda, xalqimizning dunyoga aytar so'zi, orzu- umidlarining ifodasidir.

Fuod Ko'pruli va boshqa navoiyshunos olimlar fikriga tayanadigan bo'lsak, Navoiy davrida birgina Hirotning o'zida Shohruh madrasasi, G'iyosiya madrasasi, Gavharshod kulliyasi va madrassasi, Mulkat og'a, Amir Chaqmoq, Ko'kaldosh, Farmonshayx, Amir Feruzshoh, Jaloliddin Lutfilloh, Amir Qurbonshayx madrasasi, Mavlona Lutfilloh madrasasi, Tuman og'a, Ulug'bek, Sultoniya madrasasi (Ko'sh) Hoji Afzaliddin, Muhammad Qurmoniy, Badiiya madrasasi, Madrasayi Mirza, Kavofiya, Sayfiddi madrasasi, Pis Bord madrasasi, Jomiy madrasasi, Sadriddin Ali, Xo'ja Kamoliddin, Alisher Navoiy (Sari Po'li Injil), To'rt minorali madrasa, Ixlosiya madrasasi, Ne'matobod, Masrah Sayyidlar kabi ko'plab madrasalar bo'lgan.

<sup>1</sup> Мақсуд Шайхзода. Ғазал мулкининг султони (Алишер Навоий ҳақида тадқиқот ва мақолалар мажмуаси) // Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.

<sup>2</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). - М., 1990. -220 с.

Shu bila biga bu madrasalar yonida Mirzo Shohruh kutubxonasi, Mirzo Boysunqurmuz kutubxonasi, Mirzo Husayn Boyqora kutubxonasi, kutubxonai Safid (Alisher Navoiy kutubxonasi), kutubxonai Humoyun kabi kutubxonalar faoliyat yuritgan.

Shohruh xastaxonasi, Mulkat Og‘a xastaxonasi, Ulug‘bek xastaxonasi, Alisher Navoiy tomonidan qurilgan tib madrasasi va shifoxonasi, Umarshayx qurdirgan kasalxona, Husayn Boyqoro shifoxonasi, Hoji Afdoliddin Muhammad Qirmonli shifoxonasi kabi ko‘plab tibbiyot maskanlari bo‘lgan. Bu kabi faktlar ko‘z oldimizda XV asr Xirof manzarasini gavdalantiradi.

**Bu shundan dalolat beradiki, Navoiy o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Navoiy fenomeni, shubhasiz, tamuddunlar o‘lkasi – yurtimizda kechgan yuksalishlar, Temuriylar saltanatining, turkiy tamaddunning dunyoga bergan buyuk ne‘mati, tabir joiz bo‘lsa, “oltin toji”dir.**

Amir Temur davrida ekilgan urug‘ Navoiy davriga kelib o‘z hosilini berdi. Shuning uchun Navoiyga baho berayotganda, uning merosini o‘rganayotganda qaysi xalqning farzandi, bu xalqning dunyo tamaddunida tutgan o‘rniga to‘xtalib o‘tish zarur bo‘ladi.

Amir Temur davridagi xalqning jasorati, ongi, tafakkuri, ma‘naviy quvvati Alisher Navoiydek daholarni yuzaga chiqardi. Shubhasiz, bu davrning eng yorqin shaxsiyati Alisher Navoiydir. Shuning uchun ham biz Navoiy ijodida o‘zigacha bo‘lgan davrga berilgan bahoni, ijodi, insoniyatga qoldirgan buyuk merosi bilan o‘zidan keyin yangi bir davrni boshlab berganligini ko‘ramiz.

Yosh Alisherning hali bolalik chog‘ida “Mantiqut-tayr” kabi falsafiy asarlarni mushohada qilishi, yosh bo‘lishiga qaramay o‘z she‘ri bilan katta alloma bo‘lgan Lutfiydek ijodkorni mutaassir qilgani bir jasorat edi.

Navoiy o‘z xalqiga, uning tarixi va madaniyatiga bo‘lgan muhabbatini til orqali, shu tilda yaratilgan yuksak badiiyat namunalari orqali namayon etdi. Forsiy tilda ash‘or bitish urf bo‘lib turgan bir paytda, turkiy tilning latofatini namoyish eta olgan tengsiz asarlar yaratdi.

Alisher Navoiy tarqoqlik holiga kelib qolgan, Amir Temur davrida yuksakka ko‘tarilgan mayoqning kundan-kun pastlab borayotganiga guvoh bo‘lib turardi. Bu tarqoqlik va boshboshdoqlikning sababi ma‘rifatsizlik, ilmdan uzoqlashish ekanini yaxshi ilg‘agan.

Til, adabiyot – ma‘rifatgina insonni jaholatdan qutqara oladi. Til shunchaki ma‘rifat beshigigina emas, balki milliy g‘urur yalovi hamdir. Millatning g‘ururini qaytarish, uni qayta tarbiyalash uchun, albatta, g‘ururni tarbiyalovchi vosita kerak edi.

Til millatning mavjudligigina emas, uning ruhi, qanoti va g‘ururi hamdir. Shuning uchun ham Navoiy millat g‘ururini ona til, uning go‘zal va betakror ifodasi bo‘lmish badiiy, ilmiy, tarixiy asarlari bilan yuksaklikka ko‘tardi. Zamondoshi Husayn Boyqaroning tili bilan aytganda: *“Turk tilining o‘lgan jasadiga Masih kabi ruh kiritdi”*.<sup>3</sup>

*Alisher Navoiy “Muhokamat-ul-lug‘atayn”ni yozish uchun juda puxta tayyorgarlik ko‘rgan. Eng muhimi, turkiy tilning afzalligini urg‘ulash uchun, albatta, boshqa til, jumladan, fors va arab tillarini ham mukammal bilishi shart edi.*

“Muhokamat-ul-lug‘atayn” tilning insoniyat tafakkurida tutgan o‘rniga berilgan baho bilan boshlanadi: *“Insonni nutq va til sharafi bilan boshqa maxuloqotdan ajratib qo‘ygan, uning tili va nutqining go‘zalligini namoyon qilgan,*

<sup>3</sup> Ҳаққул И. Навоийга қайтиш // Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – 472 б.

*insonni (o'zining) bergan ne'matlariga shukr qiladigan qilib qo'ygan Olohga hamdu sanolar bo'lsin". Shoir o'zining bu fikrlarini she'rga ko'chirib:*

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Ki guhari sharifroq yo'q ondin,*

shaklida ifodalangan. Aslida, millat tarixi, insoniyat tarixi – bu til tarixi deganidir. Biror bir millatning tarixda qolishi uning til taraqqiyoti, millat ongining rivoji til takomili bilan bog'liq.

Navoiy bu yerda so'zdan so'zning farqliligini, til va tafakkurning chambarchas bog'liqligini, komillik ma'no nutqining egasiga bog'liq ekanligini qat'iy urg'ulaydi: *Yaxshi so'zdan o'lgan badanga toza ruh yetadi.*

Navoiy fikricha, so'zdan murod insondir, inson ma'no nutqining egasi. Ya'ni, insongina so'zga ma'no libosi kiydira oladi.

*"Bundan so'ngra uch nav til borki, hamma tillarning aslidir va bu tillarning o'ziga xos go'zalliklari ularda so'zlovchilarning so'zlariga ko'rkidir va ularning shoxobchalari benihoya ko'pdir. Ammo, turkiy, forsiy va hindiy tillar asl tillarning kelib chiqishiga asos bo'lganki, ushbu hodisa Nuh payg'ambarning uch o'g'li: Yofas, Som va Homga borib taqaladi".<sup>4</sup>*

Dunyo tillarining shakllanishida Navoiy urg'ulagan turkiy, forsiy va hind tillarining o'rni katta ekanligi bugungi dunyo tilshunosligida allaqachon o'z isbotini topgan.

Alisher Navoiy ushbu asarida turkchaga xos bo'lgan yuzta so'zni keltirib, "Bu yuzta so'zni ajib maqsadlarni ifodalash uchun belgilabdirlarki, bularning hech biri uchun sart tilida so'z yasamagandir" deydi.

Shundan so'ng Alisher Navoiy kasb-hunarga, yilqichilikka, dehqonchilikka, oziq-ovqat, ovchilikka, so'z yasovchi qo'shimchalarga doir faqat turklarda ishlatiladigan so'zlarga atroflicha to'xtaladi. Bular shunchaki misollar emas, yuksak ilmiylik bilan asoslangan faktlardir.

Garchand turkiy tilda Navoiygacha ham asarlar bitilgan bo'lsa-da, biroq bu yaxlit madaniyat darajasiga ko'tarilmadi. Navoiy ta'biri bilan aytganda turkiy til jamiyatda to'la o'z o'rniga ega bo'lmasdan, "turkanaroq" bo'lib qolgandi. Davlat yuritish tartibi, yasolar qanchalik turkcha bo'lmasin, hali-hanuz yozuv tili, siyosat tili turkcha emasdi. Turkiy tilda yaratilgan ayrim asarlarni istisno qilganda, ular Navoiy kutgan darajada emasdi.

*"Ammo sulton Sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidan xush axloq farzandi Shohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tilida ijod etuvchi shoirlar paydo bo'ldi... lekin ijod bobida tilga olingan forsiy shoirlarga teng keladigan yolg'iz Lutfiydan boshqa kishi paydo bo'lmadi..."<sup>5</sup>* Navoiy nazdida, sherga hamla qilish uchun sher bo'lish, ona tilning jozibasini ko'rsatish uchun urf bo'lgan tilda yaratilgan asarlardan-da guzalroq, mukammalroq asar yaratish zarur edi.

Bu manmanlik yoxud kibr emasdi. Navoiy ayni shu asarida o'zini "tuproq", "faqir", "so'z ahli xirmonining boshqochisi... so'z xazinasining poyloqchisi", "ko'ngil gul teruvchisi" deb ataydi.

O'zining devonlari, "Xamsa"si, boshqa adabiy asarlari bilan Abdurahmon Jomiydek ustozining e'tirofiga sazovor bo'lgan, dovrug'i Hitodan to Xurosonga yetgan bir paytda o'zini naqadar kamtar tutganini ko'ramiz.

<sup>4</sup> Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғотайн. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю.Турсунов. – Т., Фан, 2021. – Б.80.

<sup>5</sup> Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғотайн. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю.Турсунов. – Т., Фан, 2021. – Б. 90.

Navoiy o'zini qanchalik kamtar tutmasin, o'ziga va ona tiliga bo'lgan qat'iy ishonch uning har bir asari va satrida sezilib turadi. Qat'iy ishon tufayli ham butun boshli adabiy janrlarni isloh qiladi. Faqat janrlarni emas, ongni, tafakkurni isloh qildi. Isloh qilishda hali ham davom etayapti. O'ziga ishongani uchun ham salafлари o'ttiz yilda bitgan shoh asarlarni, "Xamsa"dek durdonani agar yaratgan quvvat bersa, o'ttiz oyda bita olishini urg'ulaydi:

*Ani derga bo'lsa qachon rag'batim,  
Erur oncha Haq lutfidin quvvatim -  
Ki, har necha nutq o'lsa kohilsaroy,  
Bitgaymen o'ttuz yilin o'tuz oy.*

Bu ijodkorning ham o'ziga, ham ona tilining imkoniyatiga bo'lgan beqiyos ishonchidir. *"Agar dono hakam to'g'rilik bilan ko'z solib, burungi forsiy va so'nggi turkiyning go'zallik va nozikliklardan bahra olib, har birining bahosi va darajasini aniqlagan vaqtida, umidim shunday va xayolimga bunday kelurki, so'zimning martabasi yuqori darajada quyig'a tushmas va bu tizmalarim yulduzlari eng oliy darajadan o'zga yerni egallamas"*, deya qat'iyat ko'rsatishida Alisher Navoiyga xos bo'lgan buyuk jasorat namoyon bo'ladi.

*Turk tilining to'liqligi shuncha dalillar bilan isbot qilingach, bu xalq orasidan paydo bo'lgan iste'dodli kishilar qobiliyat va iste'dodlarni o'z tillari turgach, boshqa til bilan yuzaga chiqarmasliklari va ishga solmasliklari kerak edi. Agar ikki tilda aytishga qobiliyatli bo'lsa, o'z tillarida ko'proq va yana bir tilda ozroq aytsalar bo'lar edi".<sup>6</sup>*

Navoiy turk tilining jozibadorligini, unda ajoyib so'z va iboralar ko'pligini, biroq go'zal tarzda, jozibali satrlarda ko'rsata olishning qiyinligi, shu sababli ijod olamiga endi kirib kelgan ijodkorlar bu kabi mushkulliklardan malollanib oson yo'lni tanlashini kuyinib qayd etadi.

Navoiy bu asarida o'zining «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ush-shabob», «Badoe ul-vasat», «Favoid ul-kibar» asarlari qay taxlit, qay maqsadda yuzaga kelganini bayon qilib, "Xamsaning yaralishiga to'xtaladi:

*"Bu to'rt devon ovozasin chun rub'i maskunga yetkurupmen, «Xamsa» panjasiga panja urupmen. Avvalkim, «Hayrat ul-abror» bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi «Maxzan ul-asror»idin boshimga durlar sochibdur.*

*Yana chun «Farhod va Shirin» shabistoniga xayolim yuz tutubdur. Mir Xusrav dami «Shirin va Xusrav» o'tidin charog'imni yorutubdur. Yana chun «Layli va Majnun» vodusida ishqim po'ya urub, Xoju himmati «Gavharnoma»sida nisorimga gavharlar yetkuruptur. Yana chun «Sab'ai Sayyora» rasadin zamirim bog'labdur, Ashraf «Haft paykar»ining yetti hurvashin peshkashimga yarog'labdur. Yana chun «Saddi Iskandariy» asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Maxdum «Xiradnoma»sidin ko'si isloh va imdod cholibdur".<sup>7</sup> Alisher Navoiy bu asarlarini o'z tilida bitganligidan, ona tilining imkoniyatlarini olamga tanitganidan cheksiz g'urur tuyadi.*

Turkiy tilning nafosatini ko'rsatish uchun arab, fors tillarini yaxshi bilishi shart edi. Arab va fors tillarini yaxshi bilgani, o'z ona tiliga yuksak muhabbati bo'lgani uchun ham Navoiy hujjat tili, siyosat tili, nazm tili forscha bo'lib turgan bir paytda katta bir jasorat bilan turk tilini bayroq qilib ko'tardi. O'zining ta'biri bilan aytganda, turkiy tilda asarlar yaratib, turkiy mamlakatlarni birlashtirdi, yakqalam ayladi.

<sup>6</sup> Аlisher Navoiy. Muhoqamatu-l-lufo'tayn. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю.Турсунов. – Т., Фан, 2021. – Б.120.

<sup>7</sup> Аlisher Navoiy. Muhoqamatu-l-lufo'tayn. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю.Турсунов. – Т., Фан, 2021. – Б.130.

Shuning uchun ham Navoiyning eng yuksak jasorati o'z ona tiliga muhabbati va uni yuksaklarga ko'targani bilan belgilanadi.

Navoiyning har bir asari jasorat timsolidir. Uning she'riyati ham, "Xamsa"si, ilmiy, tarixiy asarlari ham yuksak badiiy tafakkur namunasi, ijodkorlik namunasi. Navoiy asarlari uning merosini o'rganish uchungina emas, balki o'sha davr adabiy muhiti, millat badiiy tafakkur tarixini o'rganishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy oynai jahonni o'z asarlarida "Jamshidi jom" deb atagan. Yoxud bo'lmasam, "Farhod va Shirin"da Farhodning o'z safari davomida temir odam – rabotga duch kelishi oradan necha asrlar o'tib yaratilgan rabotlarni, "Sab'ai sayyor"dagi o'zi yurar taxtlar keyinchalik kashf etilgan avtomobillarni yodimizga soladi.

Folklarga xos an'analar shoirning "Xamsa" dostonidagi "Sab'ai sayyor", "Farhod va Shirin" dostonlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

"Sab'ai sayyor"dagi yetti raqamiga va ranglarga alohida urg'u beriladi: yetti sayyora, yetti kun, yetti qasr, yetti yo'lovchi, yetti hikoya va hakoza. Navoiy asarlaridagi raqamlar, ranglar, mifologik obrazlar talqinida biz xalq ijodiga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Bundan necha ming yillar oldin ajdodlarimiz koinot haqidagi, kelajak haqidagi orzularini ertaklar, dostonlar orqali ifodalagan. Ertak va dostonlarimizdagi uchar gilamlar, dunyoning narigi burchagidagi voqyealarni aks ettiradigan oynai jahon, olti oylik yo'lga bir zumda yetib bordigan sehri qush haqidagi tasavvurlari shunchaki xayol bo'lmagan.

Buning o'z davri uchun qanchalik ahamiyatli ekanini, bugungi tilda aytadigan bo'lsak, innavsion g'oya bo'lganini, ertaklarimizni, Navoiy asarlarini o'qib anglab yetishimiz mumkin.

"Farhod va Shirin"dagi Hoqon, Farhod, Suqrot kabi obrazlarni biz xalq dostonlaridagi obrazlarga qiyoslab ko'rsak, ajib bir uyg'unlik ko'ramiz.

Bundan tashqari, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni asosida baxshilarmiz "Farhod va Shirin" nomidagi dostonlarni kuylashgan. Xususan, Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Farhod va Shirin" dostoni Navoiy ta'sirida yuzaga kelgan, xalq og'zaki ijodi qonuniyati asosida yaratilgan doston hisoblanadi.

Islom madaniyati, falsafasisiz Navoiyni anglash mumkin emas. Biroq, Navoiy merosi shu bilan chegaralanmaydi. Navoiy islomiy e'tiqodga suyangan holda, o'zigacha bo'lgan jamiki adabiy va falsafiy qarashlarni sintez qila olgan, inson fitrati bilan bog'liq qarashlar cheksizligini, uning ildizlari insoniyat paydo bo'lgan davr, qadim tushunchalar va tasavvurlar bilan chambarchas bog'liqligini isbotlab bera oldi.

Navoiy qarashlari tasavvuf olamida tamomila yangicha bir qarash, uning yangi bir bosqichi, yangi bir yuksalishidir. Hech shubhasiz, tasavvuf borasida Navoiy o'z salafaridan juda ilgarilab ketdi.

Alisher Navoiy ona tilining imkoniyatlari orqali tasavvufiy tushunchalarni, ramz, timsol, metaforalar imkoniyatini, tasavvuf falsafasi sarhadlarini yanada kengaytirdi.

Navoiy xizmati turkiy tafakkur evrilishlarini eng yorqin, eng ko'rkam ranglarda tasvirlab, yuksak pardalarda kuylay oldi. Turkiy xalqlar badiiy tafakkurini umuminsoniy badiiy tafakkuriga aylantira oldi.

"Xamsa" shunchasi beshta doston emas. Bu dostonlarning har biri puxta o'ylangan, har biri yaxlit bir hodisa va ayni paytda bir-birini to'ldiradigan bir tizimga solingan mukammal badiiy hodisa.

“Xamsa”ning “Hayrat-ul abror”dan boshlanib, “Saddi Iskandariy” bilan tugashida ham ramziy ma’no bor. Navoiy bu badiiy mukammallikning nuqtasida juda puxta o’ylab, yuksak mahoratini namoyish etganligining guvohi bo’lamiz. Iskandar vafoti oldi shunday vasiyat qiladi:

*Chiqoring bir ilkimni tobutdin,  
Hamul nav’kim rishta yoqutdin.  
Ki el solib ul sori hayrat ko’zi,  
Ne hayrat ko’zi, balki ibrat ko’zi...*

Sharqshunos olim N.Konrad aytganidek: “Agar Alisher birgina shu timsolni yaratganida ham biz baribir qarshimizda daho shoir turganini anglagan bo’lar edik”.

Alisher Navoiy bu turkiy til, turkiy madaniyat va tafakkurning hosilasidir. Chunki chinakam evrilishlar, tarixiy burilishlar, bugungi til bilan aytadigan bo’lsak, Renessanslar birinchi galda til va tafakkur bilan bog’liq.

*Har ishniki qildi odamizod,  
Tafakkur birla bildi odamizod.*

Navoiy o’z davrining farzandi, biroq u o’z davrininggina shoiri emas. U bugunning ham, kelajakning ham shoiri, faylasufi, tarixchisi, tilshunosi, tom ma’nodagi ziyolisidir. Fikrda, tafakkurda, badiiyatda Navoiy ko’tarilgan maqomga insoniyat hali yetib kelmadi. yetib borish, bu merosni anglash, o’ziniki qilish, o’ziga singdirish esa har bir avlodning o’ziga bog’liq. Odam va olim haqidagi, inson qalbi va ruhiyati haqidagi Navoiy fikrlari hamma davrlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etaveradi.

Alisher Navoiy Vatanda tug’ilib, Vatanni ulug’lab, Vatanga aylangan ijodkordir. Ijodkor bo’lmoq, millat sha’nini yuksakka ko’tarib, g’urur darg’asi bo’lmoq, deganidir.

Adabiyotshunos olimlarimizdan biri Alisher Navoiyni turkiy adabiyotning poytaxti deb atagandi. Zero, Alisher Navoiy asarlari badiiy, falsafiy, ilmiy jihatdan mukammal asarlarga emas, balki bizning tafakkurimizga, ongimizga, shuurimizga kuch va quvvat beradigan, insonlarni, ellarni, elatlarni, xalqalarni bir-biriga birlashtiradigan ma’naviy makon hamdir.

Har kuni Navoiyga yuzlanishimiz, har kuni Navoiyning so’zlarini amaliyotimizga, hikmatini hayotimiz haqiqatiga aylantirishimiz kerak. Shunda Navoiy biz bilan birga bo’ladi, shunda biz millat sifatida Navoiyga xos bo’lamiz. Bir bayt o’qiyimizmi, bir satrmi, albatta, o’zining samarasini beradi. Navoiy merosi shunday kuchga, shunday qudratga ega.

Mamlakatimiz rahbari Uchinchi renesans poydevorini yaratish g’oyasini o’rtaga tashladi. Mana shu uchinchi tammaddun poydevorini yaratishda, o’zimizni yangi tamaddunga tayyorlashda Alisher Navoiydek allomalarning fikriga, asarlariga suyanishimiz lozim bo’ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғотайн. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю.Турсунов. – Т., Фан, 2021. -160 б.
2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9 жилд – Т.Ж Ғафур Ғулум, 2011. – 768 б.

3. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1 жилд – Т.Ж Фафур Фулом, 2011. – 804 б.
4. Афзалов М. Сўзбоши. Фарҳод ва Ширин. Достон. – Т.: Фан, 1966. – 240 б.
5. Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. – 368 б.
6. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. - 384 б.
7. Мақсуд Шайхзода. Ҳазил мулкининг султони (Алишер Навоий ҳақида тадқиқот ва мақолалар мажмуаси) // Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.
8. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник патушества в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). - М., 1990. -220 с.
9. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. -326 б.
10. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш // Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – 472 б.